



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-177-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni Angor tumanidagi ijrosi Xalq deputatlari tuman Kengashidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deputatlik guruhi tomonidan o‘rganish natijalari to‘g‘risida

Angor tumanida reklama va targ‘ibot vositalarining amaldagi qonun hujjatlariga mosligini o‘rganish hamda natijalari yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashlarining sessiyalarida muhokama qilish belgilanganligini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deputatlik guruhi tomonidan Angor tumanida reklama va tashqi targ‘ibot vositalarini O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunlariga mosligi yuzasidan o‘rganish natijalari bo‘yicha axborot Xalq deputatlari tuman Kengashidagi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi deputatlik guruhi yig‘ilishida muhokama qilinganligini hamda bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni Angor tumanidagi ijrosi yuzasidan tuman hokimligining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi G.Qurbonovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G.Qurbonova), Angor tumani Ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘linmasi rahbari (K.Hamrayev)larga:

- reklama mazmunining boshqa tillardagi tarjimasining matni O‘zbekiston Respublikasi davlat tilidagi asosiy ma‘nosini buzib ko‘rsatmasligi ustidan nazoratni

yanada kuchaytirsin;

- tashqi reklama orqali joylashtiriladigan reklamaning boshqa tillardagi tarjimasi matni O‘zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matnining pastki qismida gorizontal holda joylashtirilishi va umumiy reklama maydonining qirq foizidan oshmasligi, reklamaning boshqa tillardagi tarjimasi matni harfining o‘lchami O‘zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matni harfining o‘lchamidan kichik bo‘lishi yuzasidan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini davom ettirsin;

- tumandagi reklama tayyorlovchi va tarqatuvchilarning reklamaga oid faoliyatidagi o‘z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) amalga oshirishda mas’uliyati yanada kuchaytirilsin;

- reklamadan milliy va oilaviy an‘analarga, shuningdek axloq va ma’naviyatning umum qabul qilingan normalariga zid bo‘lgan shakllar, iboralar va obrazlardan foydalanmaslik choralarini ko‘rsin;

- tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasi shaharsozlik rejalashtirish hujjatlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlashga;

- mavjud binolarning tashqi me’moriy qiyofasiga, shaharsozlik normalari va qoidalariga, xavfsizlik talablariga rioya etishga e’tibor yanada kuchaytirsinlar.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)larga:

- ommaviy axborot vositalarida “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari (O.Muratov, B.Xakimov)larga, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Ergashev) va Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov)lar zimmalariga yuklansin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov